



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтакавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

7. Юданов, А. Ю. (2024). Тридцать лет спустя, или Снова о биологическом подходе к конкуренции. «Теория конкуренции», (18)4, 21–44.
8. Queissner, M., Stolz, L., & Weiss, M. A. “A Meta-Analysis of Entrepreneurial Ecosystem Elements and Entrepreneurial Activity.” *Small Business Economics*, 2024.
9. Campos-Blázquez, J. R., Martín-García, S., & Cárdenas-Muñoz, M. Building an Entrepreneurial Ecosystem through Open Innovation fostered by Public Policies. *Journal of Innovation & Knowledge*, 2024.
10. Ali, S. R. “Entrepreneurship Ecosystems in Action: Innovation Capacity and Regional Economic Transformation.” *Regional Lens Journal*, 2025.
11. Chaves-Ladino, R. “How to Measure the Performance of Entrepreneurial Ecosystems.” 2025.
12. www.stat.uz

UDK:33

QURILISH MATERIALLARI BOZORI MOHIYATI VA UNING XUSUSIYATLARI

СУЩНОСТЬ РЫНКА СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

THE ESSENCE OF THE BUILDING MATERIALS MARKET AND ITS CHARACTERISTICS

Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o‘g‘li

Namangan davlat-texnika universiteti “Marketing” kafedrasi assistenti, PhD

Annotatsiya

Maqolada qurilish materiallari bozori va uning mohiyati yoritilgan. Qurilish materiallari bozoriga ta’sir etuvchi omillar tahlil etilgan va har bir omil tahlil etilgan. Qurilish materiallari bozorini rivojlantirish bo‘yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Qurilish materiallari bozori, makroiqtisodiy omillar, ijtimoiy omillar, geografik omillar, moliyaviy omillar.

В статье освещается рынок строительных материалов и его сущность. Проанализированы факторы, влияющие на рынок строительных материалов, каждый из которых рассмотрен подробно. Сформулированы выводы и рекомендации по развитию рынка строительных материалов.

Ключевые слова: рынок строительных материалов, макроэкономические факторы, социальные факторы, географические факторы, финансовые факторы.

The article sheds light on the construction materials market and its essence. The factors influencing the construction materials market are analysed, with each factor examined in detail. Conclusions and recommendations for the development of the construction materials market have been formulated.

Keywords: construction materials market, macroeconomic factors, social factors, geographical factors, financial factors.

Jahon bozorlaridagi shiddatli raqobat muhitiga moslashish, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarishni, sotish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng qamrovli olib borilmoqda. Qurilish materiallari sanoatini raqamlashtirish, savdo va xizmatlar elektron tizimi yaratish, sohada sun’iy intellekt tizimini joriy etish, qurilish materiallari, savdosi va xizmatlarini jadal sur’atlarda rivojlantirish, soha korxonalarini faoliyatini modernizatsiya qilish, ilm-fan yutuqlarini joriy etishga davlat tomonidan imtiyozlar berish, soliq yukini kamaytirish,

eksport va import ishlari xarajatlarining bir qismini qoplab berish, mutaxassis kadrlarga bo‘lgan talabni qondirishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Qurilish materiallari bozorini rivojlantirishda avvalo hududiy qurilish materiallari sanoatini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish muhim hisoblanadi. Hududiy qurilish materiallari sanoatini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish muhim hisoblanadi. Hududiy qurilish materiallari sanoatiga ta’sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlarga bo‘linadi: geografik omillar, moliyaviy omillar, ijtimoiy, ekologik, ma’muriy, ilmiy-ma’rifiy va boshqa omillar. Ularning har biri viloyatda qurilish materiallari sanoatini rivojlanishiga va istiqboliga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Qurilish materiallari bozori muammolarining metodologik-nazariy asoslari, jahondagi yetuk olimlar E.Chemberlin [1], J.Tirol [2], F.Sherer va D.Ross [3] lar va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ular asosan: qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga bog‘liq nazariyalar; bozor iqtisodiyoti sharoitidagi muammolar; raqobatbardosh mahsulot va bozorlar; mintaqalarda qurilish materiallari bozorining o‘ziga xosligini nazariy jihatlari; MDH olimlaridan S.B. Andashev, A.Vuros, N.M. Rozanov, V.Tretyak, V.A.Jukov [4] lar tomonidan raqobatdosh bozorlar nazariyasi, sanoat korxonalarini ishlashiga ta’sir qiluvchi mintaqaviy omillar va qurilish materiallari bozorini boshqarish muammolari tadqiq etilgan.

Qurilish materiallari bozorini tadqiq etishning bosh maqsadi — mamlakatda olib borilayotgan qurilish ishlari hajmini va sifatini yuqori darajada ta’minlaydigan qurilish sanoatini rivojlantirish, ularning savdosini va barcha xizmat ko‘rsatish sohalarini yuqori darajada tashkil etishdan iborat bo‘lishi kerak. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasi mazkur bozorning rivojlanish holati bilan baholadi. Qurilish materiallari bozorini tadqiq etish va rivojlantirishning pirovard natijasida mamlakatda aholining sifatli va arzon uy-joylar bilan ta’minlanishi ya’ni aholining uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasi ortishiga, ushbu sohada mehnat bilan band bo‘lganlar soni ortishiga erishiladi [5].

Qurilish materiallari bozori — bu qurilish sohasi ehtiyojlarini qondiruvchi, ishlab chiqaruvchi korxonalar, vositachilar, savdo tashkilotlari va iste’molchilar o‘rtasida shakllangan iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Ushbu bozorning asosiy maqsadi — qurilish jarayonida zarur bo‘lgan materiallar, mahsulotlar va texnologiyalarni o‘z vaqtida, sifatli va raqobatbardosh narxlarda yetkazib berishdir.

Qurilish materiallari bozori — bu iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yurituvchi ishlab chiqaruvchi korxonalar, vositachilar, chakana va ulgurji savdo subyektlari hamda yakuniy iste’molchilar o‘rtasida qurilish jarayonida zarur bo‘lgan materiallar, xomashyo va texnologik mahsulotlar harakati bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Qurilish materiallari bozorining mohiyati shundan iboratki, u nafaqat ishlab chiqarish va savdoni, balki texnologik yangilanish, resurslardan samarali foydalanish hamda investitsiya muhitini shakllantirish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar — talab va taklif, narx belgilash, logistika, marketing strategiyalari hamda raqobat mexanizmlari orqali tartibga solinadi.


Ushbu bozorning asosiy mohiyati qurilish sohasi uchun zarur resurslar bilan ta’minlash, ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlash, hamda bozor mexanizmlari orqali tarmoqlar o‘rtasidagi muvozanatni shakllantirishdan iboratdir. Qurilish materiallari bozori mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u nafaqat uy-joy va infratuzilma qurilishini qo‘llab-quvvatlaydi, balki sanoat, transport, energetika, xizmat ko‘rsatish kabi ko‘plab sohalarning rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, ushbu bozor ishlab chiqarish, taqsimot, almashinuv va iste’mol jarayonlarini o‘z ichiga olgan murakkab tizimdir. Bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar talab va taklif, narx shakllanishi, raqobat, marketing strategiyalari, logistika hamda davlat tartibga solish mexanizmlari orqali boshqariladi.

Qurilish materiallari bozori iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega, chunki u investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi, bandlik darajasi, hududiy infratuzilma rivoji va aholi turmush

darajasiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Bu bozorning samarali faoliyati iqtisodiy barqarorlik, sanoat diversifikatsiyasi va eksport salohiyatining oshishida hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Qurilish materiallari bozorining holati va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ham mavjud bo‘lib, ularning barchasi mazkur bozorning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Quyidagi 1-chizmada qurilish materiallari bozorining holati va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar berilgan.



1-chizma. Qurilish materiallari bozorining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar

Yuqoridagi omillarni tahlil etish orqali shuni aytish mumkinki, qurilish materiallari bozorining chegaralari transport tarmog‘ining rivojlanish darajasiga va hududlarning ixtisoslashuviga bog‘liq. Agar qurilish materiallarining ayrim turlari bo‘yicha viloyatda ishlab chiqarish hajmlari va tarkibi iste’mol hajmlariga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, viloyatda ushbu turdagi qurilish materiallarining nisbatan yopiq bozori shakllanadi. Ushbu turdagi bozorlar viloyatdan tashqariga eksport qilish uchun mos bo‘lmagan qurilish materiallari turlariga xosdir. Shuning uchun hududiy qurilish materiallari bozorining shakllanishini o‘rganish hududiy qurilish majmuasi korxonalarining normal faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan moddiy resurslar hajmini aniqlash, qurilish materiallarining ayrim turlarini iste’mol qilishning tabiati va hududiy chegaralarini aniqlash, tarmoqlararo munosabatlarni tahlil qilib, ayrim turdagi xomashyo va materiallarning almashinishi muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi.

Qurilish materiallari bozorining holatini belgilovchi ba’zi omillar o‘zgarishsiz bo‘ladi. Bu, birinchi navbatda, geografik omillardir. Qurilish va qurilish texnologiyasida ishlatiladigan materiallarning xususiyatlari iqlim omillariga bog‘liq. Landshaft va mintaqaning seysmiklik darajasi, o‘z navbatida, qurilish materiallari va mahsulotlarining dizayn xususiyatlariga qo‘yiladigan talablarga ham ta’sir qiladi. Mahalliy xom ashyoning mavjudligi yoki yo‘qligi ishlab chiqarilgan materiallar turini, ishlab chiqarish narxini belgilaydi. Ishlab chiqarish obyektlarining soni va joylashishi hududning kattaligiga va transport infratuzilmasining holatiga bog‘liq. Yuqoridagi omildan tashqari mavsumiy omillar juda muhim va ko‘p jihatdan qurilish materiallari bozoridagi talab va taklifni belgilaydi. Mavsumiy davrilik sovuq hududlar sharoitida qurilish asosan yozda amalga oshirilishi va qurilish materiallarini iste’mol qilish asosan yozda sodir bo‘lishi bilan izohlanadi. Misol uchun Rossiya Federatsiyasida Sibir hududida qurilish ishlari asosan yozda amalga oshiriladi. Mavsumiy omillarga mos ravishda ishlab chiqaruvchilar o‘z ishini quyidagicha tashkil qiladi: bahor va yozda to‘liq quvvat bilan ishlaydi, kuz-qish mavsumida kamroq mahsulot ishlab

chiqarib, o‘z omborlariga qoldiradi. Bundan tashqari makroiqtisodiy sikllar ham mavjud va ular ham qurilish materiallari bozoridagi talab va taklifga ta’sir o‘tkazadi. Shunday qilib, qurilishda yirik o‘zgarishlar, katta «portlashlar» har 20 — 30 yilda sodir bo‘ladi. S. Kuznets tomonidan qurilish sikllari, ularning boshlanishi ko‘plab omillar bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlangan: uy-joy fondini yangilash zarurati, ishbilarmonlik va siyosiy faoliyatdagi tebranishlar, demografik va texnologik sikllarning bosqichlari [6].

Ko‘rib chiqilayotgan omillarning qurilish bozoriga ta’siri turiga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita omillarni ajratish mumkin. To‘g‘ridan-to‘g‘ri omillar bozorda talab va taklifning xususiyatlarini bevosita belgilaydigan omillarni o‘z ichiga oladi. Ularga uy-joyga muhtoj aholi daromadlarining tarkibi va tuzilishi, qurilish tashkilotlaridan aylanma mablag‘larning mavjudligi, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi, ularning nomenklaturasi va assortimenti, mahsulot narxi, ishlab chiqarish obyektlarining mavjudligi va boshqalar. Bilvosita omillarga bozordagi talab va taklifni shakllantiruvchi omillar va ularning xususiyatlari kiradi.

Bilvosita omillarga: mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyat, infratuzilma holati, investitsiya muhiti, geografik va boshqa omillar kiradi.

Qurilish ishlarining rivojlanishi natijasida, qurilish materiallariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Qurilish materiallari savdosi asosan bozorlar va maxsus ixtisoslashtirilgan savdo shoxobchalari hamda birja orqali amalga oshiriladi. Qurilish materiallari savdosini tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha Yevropa ulkan tajribaga ega.

Qurilish materiallarini sotish bo‘yicha Yevropa amaliyotining mavjud tizimini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Yevropa davlatlari shu jumladan Rossiyada qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilar uchun mahsulotlarni ishlab chiqish, ularning ekspertizasi va tashishda vositachilarni jalb qilish eng samarali usul hisoblanadi. Bu davlatlarda dilerlar qurilish materiallari bozorini rivojlanish istiqbollariga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi hisoblanadi. Qurilish materiallari bozorida sotuvchilar bir vaqtning o‘zida «ikki shaxs» sifatida — ham xaridor, ham sotuvchi sifatida ishlaydi. Shunday qilib, ular bir xil ahamiyatga ega va murakkab bo‘lgan ikkita vazifani hal qilish zaruratiga duch kelishadi: — 1) xaridlar bozoridagi mavjud vaziyatni baholash; 2) savdo bozoridagi vaziyatni boshqarish. Zamonaviy sharoitda bunga faqat opportunistik (opportunist) xarakterdagi ma’lumotlarni (assortiment, hajmlar, sifat, shartlar, yetkazib berish va tashish, narxlar va tariflar va boshqalar) va statistik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli, ishonchli va foydalanish mumkin bo‘lgan axborot maydoni bilan erishish mumkin. Buning natijasida iqtisodiyotda yuzaga keladigan tendensiyalarni umumiyroq baholash mumkin.

Ulgurji va chakana savdo — Yevropa mamlakatlari milliy iqtisodiyotining tarmoq tuzilmasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Qurilish materiallari savdosining har ikki tarmog‘i ulgurji va chakana savdosi ham mustahkam moddiy-texnik bazaga ega bo‘lib, hozirgi kunda mutanosib rivojlanmoqda. Yevropa mamlakatlarida mahsulotning ixtisoslashuvidan qat’iy nazar, ulgurji sotuvchilar uchta asosiy turga bo‘linadi: mustaqil ulgurji vositachilar yoki distribyutorlar; agent yoki broker tashkilotlari va sanoat ulgurji shuba korxonalari. Ixtisoslashuv xususiyatiga ko‘ra, bir xil turdagi tovarlarga aniq yo‘naltirilgan distribyutorlar va ko‘p tovar tarqatuvchilarga bo‘linish mavjud. Yevropa mamlakatlari uchun qurilish materiallarini sotadigan turli yirik savdo tashkilotlari odatiy ulgurji va chakana savdo uyushmalari hisoblanadi. Bunday assotsiatsiyani ishlab chiqaruvchidan chegirmali narx bo‘yicha tovarlar sotib oladigan, so‘ngra ularni assotsiatsiyaga a‘zo bo‘lgan chakana savdo do‘konlariga tarqatadigan ulgurji (kamroq chakana) kompaniya boshqaradi. Shu bilan birga, uyushma a‘zolariga kredit olish, ro‘yxatdan o‘tkazish va eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash kabi turli xizmatlar ko‘rsatiladi.

Qurilish materiallari bozori mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi infratuzilma, hududiy ixtisoslashuv, ilmiy-texnologik taraqqiyot, davlat siyosati va iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq. Bozor zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqamlashtirish, elektron savdo tizimlarini rivojlantirish orqali yanada samarali va raqobatbardosh holga kelmoqda. Hududiy omillar (geografik, iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy) va mavsumiy ta’sirlar qurilish materiallari ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini shakllantiradi. Mamlakatda qurilish hajmi va sifati oshgani sari

bozorga bo‘lgan talab ko‘payadi, bu esa bandlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. Quyidagilarni hisobga olish ijobiy natijalar beradi deb hisoblaymiz:

- Bozorni raqamlashtirish va elektron savdo tizimlarini kengaytirish orqali savdo va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish.
- Davlat tomonidan soliq imtiyozlari, eksport-import xarajatlarini kamaytirish, investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali sohaga qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish.
- Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish uchun innovatsion ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish zarur.
- Mutaxassislar tayyorlash va kadrlar salohiyatini oshirish uchun ta‘lim va ilmiy-ma‘rifiy ishlarni rivojlantirish.
- Hududiy qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishda geografik va ekologik omillarni hisobga olish, transport infratuzilmasini yaxshilash.
- Mavsumiy talab va iqtisodiy sikllar ta‘sirini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni va taqsimotni moslashtirish.
- Sifat va raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida ishlab chiqaruvchilar va distribyutorlar o‘rtasida samarali marketing va logistika tizimlarini joriy etish.
- Xalqaro tajriba va ilg‘or texnologiyalarni o‘rganib, ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Чемберлин Э. Теория монополистической конкуренции / Э. Чемберлин. - М.: Экономика, 1996. - 351 с.;
2. Тироль Ж. Рынки и рыночная власт: теория организации промышленности: в2-х-т./пер. англ. под ред. В.М.Гальперина и Н.А.Зенкевича. Спб: Экономическая школа, 2000г.
3. Шерер Ф. Д. Росс. Структура отраслевых рынков: Пер с англ. / Ф. Шерер, Д. Росс. - М.: ИНФРА-М, 1997. - 698 с.;
4. Андашев С.Б. Теория организации отраслевых рынков: Учеб./ Андашев С.Б, Н.М. Розанова.- М: ИЧП . “Издательство Магистр” 1998г.;
5. Вурос Л. Экономика отраслевых рынков / Л. Вурос, Н. Розанова. - М.: МГУ, 2000. -312 с.;
6. Розанова Н.М. Квазиконкурентные рынки-реальность российской экономики/ Н.М.Розанов, С.Б. Андашев// Вести. МГУ, Сер.6.Экономика.-1998 г.
7. Третьяк В. Анализ отраслевой организации рынков: Курс Лекций// РЭЖ.-2001 г.; В.А.Жуков. Методы управления результативностью рынка строительных материалов на уровне региона. Дисс.кан.эко.наук. Волгоград-2005 г
8. Z.V.Usubjonov “Qurilish materiallari bozorini rivojlantirishda marketing konsepsiyalaridan foydalanish” dis. 19-24b
9. Нив Г.Р. Пространство доктора Деминга: Пер. с англ. - М., 1998.